https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Akbarova Moxigul Gulomovna
Guliston davlat universiteti. San'atshunoslik fakulteti "
An'anaviy xonandalik va xalq cholg'ulari" kafedrasi o'qituvchisi.
maysaraakbar@gmail.com
+998949023291

PEDAGOGLARNING DARS JARAYONLARIDA UCHRAB TURADIGAN NUTQIY KAMCHILIKLARI VA ULARGA YECHIMLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada bir necha yillar mobaynida pedagoglik faoliyati olib borayotan o 'qituvchining kuzatuvlari natijasi o 'laroq, darslarda pedagoglarning nutqiy kamchjiliklari va ularni tuzatish uchun tavsiyalar hususida so 'z boradi. Maqolada o'qituvchining pedagogic faoliyatida nutqning ahamiyati va o'quvchilar bilan muloqot qilish uslublari, nutqdagi o'zgarishlar o'quvchilarning bilim darajasi, ruhiy holati, yoshiga, o'quv materialining murakkabligiga va darsning turiga qarab o'zgarishi, o'qituvchining nutqi dars jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonlarini yoritib berilgan.

Kalit so 'zlar. Pedagogik nutq, nutqiy kamchiliklar, muammo va yechim, natija, metodik yondashuv, pedagogic tajriba, notiqlik mahorati, professional nutq.

KIRISH

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, tafakkur so'z vositasida shakllanuvchi bo'lganligidan o'qituvchi nutki yordamida o'quvchi yangi – yangi ilmiy axborotlarni, bilimlarni o'zlashtiradi, ma'naviy boyib boradi, axloq – odob, madaniyat marralarini egallaydi. Ta'lim – tarbiya jarayonlari hissiyot , ichki kechinma va tuyg'ularga boy, emotsional jarayon hisoblanadi. Pedagog sifatida talaba yoshlarga taqdim etadigan fikrlarimiz ularga ijobiy ta'sir etib, iliq bir his uyg'otmas ekan talabalar ustozning dars jarayonlaridan hech narsa olmaydilar. Gap o'quvchilarning ruhiy holatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

haqida borishi kerak. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o‘quv faoliyatini juda samarali qiladi. O‘quvchilar his – hayajonga to‘la emotsional ruhdagi materallarni durustroq o’zlashtirib oladilar. Bunda o‘qituvchining ta’sirchan so‘zi, nutqi, umuman nutq madaniyati qudratli vositadir. Nutq odobi insonning ahloqini belgilovchi mezondir. Ahloq fan sifatida o`rta asrlarda yuzaga keldi. Kishining odobi, eng avvalo uning nutqida ko`rinadi. Nutq odobi – aytilishi zarur bo`lgan xabarlarni tinglovchiga hurmat qilgan holda, bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib kelishi mumkin. Har bir xalq tili o`sha millat a’zolarining erkin va bemalol fikrlasha olishi uchun yetarli bo`lgan so`z boyligiga ega.

Qanday sohada bo ‘lishidan qat’iy nazar pedagog o ‘z sohasi doirasida chuqur bilim va tajribaga ega bolish bilan birga notiq darajasida ham bo ‘lishi shart. Chunki inson miyyasidagi mavjud bilimlar tilga ko ‘chib, qog’ozga bitilmas ekan u miyyada saqlanaveradi. Qadimgi donishmandlarning ta’kidlashicha, notiqlik san’ati – bu so‘z bilan ishontirish qobiliyatidir. G‘arb donishmandi B.Emirson ham buni tasdiqlab o‘tgan: “Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi”. Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma’lum. G`arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti hisoblanganlar. Aristotel “Agar nutq noaniq bo`lsa, u maqsadga erishmaydi” degan bo`lsa, Kaykovus: “Ey, farzand, so`zning yuz va orqa tomonini bilgin. Ularga rioya qilgan, so`zlaganda ma’noli gapir, notiqlikning alomatidir”. Agar gapirgan vaqtingda so`zning qanday ma’noga ega ekanligini bilmasang aniqlik nutqning tenbrlarini yaxshilash, diktsiyaga e’tibor berish, tovushlarning past baland tovlanib turishi, unli va undoshlarni talaffuz etish, ohang kabilarni o ‘z ichiga oladi. [A.1. 9]

Pedagogik jarayonlarda uchrab turadigan nutqiy kamchiliklar o‘qituvchilarning o‘z bilim va ko‘nikmalarini to‘g‘ri ifoda etishiga, shuningdek, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Fizik olim B.Paskalning fikricha, insonlarga ta’sir ko‘rsatishning ikki xil usuli mavjud bo‘lib, birinchisi – “ishontirish usuli”, ikkinchisi – “yoqish usuli”dir. Ishontirish usuli notiqlik bo‘lsa, yoqish usuli bu imij yaratishdir. Ulardan qay biri ahamiyatliroq va ishonchliroq, degan savolga har ikkalasining ham inson hayotida muhim o‘rni bor, deb ishonch bilan aytishimiz mumkin. Boshqacharoq qilib aytganda, odamlar o‘zi yoqtirgan odamga ishonishadi yoki o‘zlarii ishongan odamlarni yoqtirishadi. Demak, o‘zgalarga ta’sir o‘tkazishda ishontirish vositasi bo‘lgan nutq va imij yaratuvchi vosita bo‘lgan yoqtirish biri-birini taqozo etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni ishontirishi va ularga yoqimli bo‘lib ko‘rinishi orqali ta’limiy va tarbiyaviy ta’sir o‘tkaza oladi. Pedagogning asosiy quroli bo‘lgan nutqdan o‘qituvchi unumli foydalanadi. O‘quvchilarga voqea hodisalar, shaxslar haqida ma’lumot berishda bu katta ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bog‘liq, yoqimli va jarangdor ovozga ega bo‘lgan pedagog o‘z o‘quvchilariga ovozining shiradorligi bilan ham ta’sir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchi o‘z ovozini kuchini, yoqimliligini bilishi zarur. [A. 3. 116] bugungi kunda yaratilayotgan pedagogik sohadagi juda ko ‘plab manbaalarda O‘qituvchining nutqi – bu o‘quvchilarning e’tiborini jalb etish, ularga bilim berish va shaxsiy o‘sishiga ko‘maklashish uchun asosiy vosita. O‘qituvchining nutqi aniq, mazmunli va didaktik talablarga javob berishi O‘qituvchining nutqiy faoliyati ikki tomonlama jarayon bo‘lib, bunda o‘quvchilarning faol ishtiroki ta’minlanishi kerak degan tyshunchalarga duch kelamiz. O ‘qituvchi nutqi adabiy talaffuz me’yorlariga amal qilishda o‘quvchiga namuna bo‟la olishi lozim. Adabiy talaffuz me’yorlarining buzilishi eng avvalo shevaning natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun o‟qituvchi o’zi va o‟’uvchilari nutqini shevaga oid artikulyatsion baza va shevaning fonetik qonuniyatlaridan batamon qutilish oson kechmaydi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Sitseronning “Notiq” asarida notiqning asosiy maqsadi-tinglovchi zavqini uyg’otib, o`ziga moyil qilishdan iborat. Sitseron fikricha, kimki jo`n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o`rta darajada, ulug’ hodisalar haqida shavq-zavq bilan gapirsa, shu odam so`z san`atining chinakam ustasi bo`lishini alohida ta`kidlaydi. Demak ustoz ham o ‘z talabalarini o ‘tayotgan mavzusiga qiziqtirishi keraklogiga ishora beradi.

Darhaqiqat pedagogic nutq barcha tamoillari bila professionallikni talab etadi Taniqli tilshunos olim, leksikograf, filologiya fanlari doktori, professor S. J. Ojigov ning takidlashicha “Me`yor-bu ijtimoiy jarayonda birga mavjud bo`lgan, bor bo`lgan, yangi paydo bo`lgan yoki o`tmishning kam ishlatiladigan til unsurlarini (lug’aviy, talaffuz, morfologik, sintaktik) tanlashning natijasi sifatida shakllangan, jamiyatga xizmat qiladigan foydali til vositalari yig’indisidir, keng ma`noda bu unsurlarni baholashdir” [A. 4]

METODOLOGIYA

Pedagogik jarayonlarda nutqiy kamchiliklarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish uchun metodologik yondashuvni ishlab chiqish muhimdir. Pedagogning ishonchli gapirishi, nutqi ravon, tushunarli, chiroyli dalillangan, puxta asoslangan bo‘lishi, shuningdek, bu so‘zlarga albatta o‘zi ham rioya qilishi uning imijiga ijobiy ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Sababi pedagogik faoliyatdagi nutqiy muloqot – o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi axborot almashuv jarayoni bo‘lib, u nafaqat lisoniy, balki ruhiyat bilan ham bog‘liq hodisadir. Pedagogik muloqot oddiy axborot almashish hodisasi emas, balki ma’rifiy-didaktik ruhda shakllantirilgan, nafosat va nazokatga yo‘g‘rilgan muomala ko‘rinishidir. Dars jarayonlarida pedagog nutqi o‘qituvchining o‘quvchilar bilan samarali aloqada bo‘lishi, ularni tushunishi va ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli olib borishida muhim rol o‘ynaydi. Pedagog nutqi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarni motivatsiya qilish, ularni qiziqtirish va ularni faollashtirishga ham qaratilgan bo‘lishi kerak.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Biroq, ba'zi kamchiliklar ham mavjud bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi nutqiga motivatsion va ijobiy his-tuyg‘ularni kiritib, o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otishi kerak.O‘qituvchi ma'ruzalarini to‘g‘ri tartibda, izchillik bilan bayon qilishi zarur. Dars jarayonlarida pedagog o`qituvchi o`z nutqidan keng foydalanadi. O`quvchilarga voqea hodisalar, shaxslar haqida ma’lumot berishda bu katta ahamiyat kasb etadi. O`qituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bog`liq, yoqimli va jarangdor ovozga ega bo`lgan o`qituvchi o`z o`quvchilariga ovozining shiradorligi bilan ham ta’sir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o`qituvchi o`z ovozini kuchini, yoqimliligini bilishi shart.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.


O‘qituvchi o‘z nutqida sodda va aniq bo‘lishi, o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni oddiy tilda tushuntira olish zarur. Dars jarayonlarida pedagog nutqi o‘qituvchining o‘quvchilar bilan samarali aloqada bo‘lishi, ularni tushunishi va ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli olib borishida muhim rol o‘ynaydi. Pedagog nutqi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarni motivatsiya qilish, ularni qiziqtirish va ularni faollashtirishga ham qaratilgan bo‘lishi kerak. Biroq, ba'zi kamchiliklar ham mavjud bo‘lishi mumkin.O‘qituvchi o‘z nutqida sodda va aniq bo‘lishi, o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni oddiy tilda tushuntira olish zarur. Nutq o‘quvchilarning yoshiga, bilim darajasiga va ehtiyojlariga moslashgan bo‘lishi shart. O‘qituvchi nutqiga motivatsion va ijobiy his-tuyg‘ularni kiritib, o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otishi kerak.O‘qituvchi ma'ruzalarini to‘g‘ri tartibda, izchillik bilan bayon qilishi shart.

Har qanday muammo va kamchililar avval aniqlanmaguncha hal bo ‘lmaydi. Biz maqolada pedagoglarning dars jarayonlarida nutqiy kamchiliklariga e ‘tibor qaratish bilan birga quyidagicha tahlil qilamiz. Avvalo har bir kamchiliklarni aniqlab olamiz. Hamkasblarimizga eng soda va natijali usulni tavsiya etaman. Avvalo o ‘z faoliyatlarida nutqiy kamchiliklarini o ‘rganib o ‘z o ‘zini tashxis qilish metodidan foydalanib, muammo va kamchililarni aniqlash va albatta ularni

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

yozishlari kerak. Aniqlab olingan kamchiliklarni bartaraf etuvchi omillarni ishlab chiqish va uni kamchiliklar to ‘g ‘risiga moslik darajasida terib chiqshlari kerak. Bu pedagogning nutq faoliyatining natija kaliti vazifasini bajaradi. Masalan quyidagi jadvallar men M. Akbarovaning oddiy lekin 9 yil davomida o ‘zim duch kelgan va aniqlangan muammolarga yechim sifatida ijobiy natija berayotgan yo’l xarita hisoblanadi.

Pedagog faoliyatida nutq muammolari o'z - o 'zini tahlil qilish va baholash metodi yordamida aniqlash.	
Kamchiliklar	Tavsiya
Dars jarayonlarida doimiy takrorlanuvchi muammolar	
Tayyorgarliksiz darsni boshlash (takrorlanmagan nutq)	Nutq rejasini avvaldan tuzib chiqish



https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Kamchililar:

- Tibbiy muammo sog ‘liklaridagi o ‘zgarishlar tufayli yuzaga keladigan nutqdagi tutilishlar.
- O‘z fikrini yetarlicha ifodalamaslik. Mavzu doirasida faktlarni aniqlab olmaslik
- Noixtiyoriy, kuchli toliqish va hayajonlar sabab (Hayajon ilk bor mashg ‘ulot o ‘tkazish, yangi talabalar, yangi ish joyi va h, k.)
- Bilimsizlik. Ushbu jarayonda pedagog o ‘tilayotgan mavzuga nisbatan kam tayyorlangan, masuliyatsiz yondoshganligi sabab so ‘zlarning bir - biriga qovushmasligi, oldi qochti gaplarga o ‘ralib qolish (mantiqsiz nutq)
- Juda ko ‘p ma ‘lumot. Ko ‘p hollarda pedagog shahsiy reglamentini to ‘g ‘ri taqsimlamaganligi oqibatida gapirayotgan paytida bir ma’lumotni tugatmasdan bosqasiga o ‘tib ktish jarayonlarida yuzaga keladigan holatlar.
- Sheva, jargon va murakkab terminlar.
- emotsional va motivatsion elementlarning yetishmasligi o‘quvchilarni qiziqtirishni kamaytiradi.
- Kibr, maqtanchoqlik haddan tashqari o ‘ziga ishonch.
- Monotonni nutq. Bir hil tonda, baqirish yoki o ‘ta past gapirish. (Rang baranglik talabani o ‘ziga jalb qiladi) o‘qituvchi bir xil ohangda, qattiq va monoton nutq so‘zlaydigan bo‘lsa, bu o‘quvchilarning diqqatini saqlashda qiyinchiliklar
- Chag’ituvchi

Tavsiya qilaman. Avvaldan mavjud ustozlar amaliyotidan o ‘tgan, sinalgan usullar.

- O ‘ziga hurmat. Ushbu jarayonda pedagog avvalo kiyinishi, tashqi ko’rinishi, darslarga ma’suliyati. Hammasi jamlanib sizning nutqiy faoliyatingizni bezaydi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

- Aniq va faktlarga tayangan holda dars o ‘tish. Kerakli va ishonchli manbaalar asosida so ‘zlash va talabalardan ham shuni talab etish.
- O ‘zgarmas fikr, qatiiyat. Talabaga bir kun qattiqqo ‘l va bazida mehribon bo ‘lish hamelionlik qilmang. Ular bilan soda lekin manoli, hushmuomila lekin chegarali, ishonch bilan lekin aniq fikr bilan muloqot qiling.
- Bering va oling. Ya’ni o ‘tayotgan mavzuyingiz yuzasidan savollarni dars so ‘ngida yoki kelasi darsga aslo qoldirmang. Dars jarayonlarining o ‘zida , ma’lum bir ma’lumotni so ‘zlab jumla yakunlangach savol bilan talab qiling. Ularda interaktivlikni oshiring.
- O‘qituvchi o‘z nutqida sodda va aniq bo‘lishi, o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni oddiy tilda tushuntirshga intiling
- Ko ‘proq eshiting. Gapirishni istamasalar qiziqtiring, qiziqtira olmasangiz ularni beihtiyoriy jalb qiling. Masalan: mavzudan tashqarida savollar bering ammo javobi mavzu doirasida bo ‘lsin.
- O ‘z fikringizni talabalar bosimi sabab o ‘zgartirman. Bu jarayonda nutqiy tutilishlarga olib keladi va keying jarayonlarda nutq manbaasi tugashi yoki hotiradan chetlashib qoladi.
- Sizning yoshungiz nechchida bo ‘lishidan qat’iy nazar o ‘qituvchi ekanligingizni unutmang.
- Ko ‘p juda ko ‘p kitoblar o ‘qing. O ‘qiyotgan kitobingiz sohangizga yaqin bo ‘lishi juda muhim.
- Har bir faningizni tarixi va shakllanish jarayonlari hamda bugungi kundagi ahamiyatini avvalo o ‘zingiz chuqur anglab olishingiz shart.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa va tavsiya o ‘rnida shuni aytish joizki o’qituvchida kasbiy kasallik kelib chiqmasligi uchun, albatta, tovush gigiyenasiga amal qilish kerak. O’qituvchi ish vaqtining 50 -60 foizi davomida nutqiy faollikda bo ‘ladi. Pedagog ish vaqti tugagach 2-3 soat davomida uzoq vaqt so’zlashishdan qochishi kerak. Zarur bo ‘lib

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

qolsa, qisqa va sekin gapirishi kerak. Dars jadvali qo'yilishida shunga e'tibor berish kerak. 3-4 soat darsdan so'ng nutq apparati charchaydi, shundan so'ng 1 soat tovush dam olishi kerak. Ko'p stajli, ya'ni tajribasi ko'p o'qituvchi 2-3 soatda charchaydi va 2 soat dam olishi kerak. Yuqori nafas yo'llari, asab tizimlari, ovqatlanish rejimiga e'tibor berish kerak . Nutq tezligi o'qituvchining individual sifatiga, uning nutq mazmuni va muloqot holatiga bog'liq bo'ladi. Talabalar sinf oldida o'z his-tuyg'ularini do'stlariga uyalmasdan erkin ifoda eta olmaydilar va ularning erkinlik darajalari o'qituvchining nutqiy faoliyati bilan o 'lchanadi. Bu holatda o'qituvchining o'z o'quvchilarini sinfda faol bo'lishiga qanday yordam berishi mumkin degan savol tug'iladi. Bu holatda o'qituvchining roli faol va ijodiy yondashib ularning inkluziv holatlarini o'ylagan holatda, har biriga mos keluvchi mayorni aniqlab o'quvchilarni nutq jarayonlarini boshqarishi lozim.

O'qituvchi rolini muhim qiladigan narsa shundaki, agar o'qituvchi o'z faoliyat meyorini sinfda to'g'ri belgiab olsa va belvosita talabalarni o'z qobiliyatini ko'rsatishga imkon berib fikr erkinliklariga undaydi va bu o'quvchilarning o'z iqtidorini ko'rsatishga ta'sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining sof nutqi o'quvchilar uchun yoki o'qituvchining ta'lim maqsadlariga erishishi uchun dars jarayonlarida faqat ijobiy natija beradi. [A. 2. 142] Nutqning aniq, motivatsion, tizimli va interaktiv bo'lishi darsning samaradorligini oshiradi. Shuningdek, o'qituvchining o'quvchilarga individual yondashuvi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan nutqi ta'lim jarayonining sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. O 'qituvchi har doim o'z ustida ishlashi, yangiliklardan boxabar bo'lishi innovatsiyalarga ijobiy qarashi o'zi ham novator bo'lishi maqsadga muvofiq.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Moxigul Akbarova. Pedagagik faoliyat jarayonlarida o‘qituvchilarning nutqiy faoliyatlarida uchraydigan kamchiliklar , yutuqlar va ularning mohiyati. Monografiya. Guliston 2025 yil.
2. O’qituvchining nutq madaniyati. Rasulova G Andijon 2008 yil. 9- bet
3. Teacher’s Role and the Principles of Teaching Speaking Skill. Z. Kamal. Tafhim Al- Ilm May 2019. 141 -bet
4. PEDAGOGIK FAOLIYATDA NUTQ MADANIYATI VA IMIJNING UYG‘UNLIGI D. Yu. Yusufova “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psihologiy” konfrensiya materiali. 116 –bet
5. O’QITUVCHI NUTQI MADANIYATI matn qo ‘llanma. Zebiniso Ahmedova , Zarif Quvonov Navoiy 2008.16-bet
6. Pedagogical aproaches to the formation of musical literacy of students in the sytem of Higher Education M Akbarova, G Tursunova, Z Abdunazarova. European Journal of Arts 2020 yil. 127 –bet.
7. Aktyorlik maxorati o ‘quv qo ‘llanma. M. G Akbarova Qo ‘qon 2020 yil 47-56 betlar.
8. Акбарова М. Г. Роль и значение искусства национального макома в развитии педагогических компетенций будущих специалистов в области вокального искусства и пения 2025/2 Совершенствование методики обучения языкам площадка обмена прогрессивной практикой